#### **Amaliy savollar:**

1. Numizmatika nima?
2. Muste qaysi davrga oid madaniyat.
3. Arxeolitlar nima.
4. Arxeologiya qanday ma'noni anglatadi.
5. YOzuv qachon vujudga kelgan.

#### **Bilet № 5.**

1. Kozokiston va Qirg'iziston xududlarida mezolit va neolit davri yodgorliklarining o'rganilishi.  
Tayanch tushunchalar: Burikazigon, Qorator, Burgutli, Uchbuloq, Alpisbaev X.A.
2. Tojikiston xududida bronza va temir davri yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar.  
Tayanch tushunchalar: Tulxor kabr yodgorligi, Tandiryo'l, Oykul, Qal'ai Mir, Mendelshtom A.M.

#### **Amaliy savollar:**

1. CHopperlar nima.
2. Bronza davri qaysi yillarni o'z ichiga oladi.
3. Eng dastlabki sodda mexnat quroli.
4. Tabiiy olov qachon kashf etilgan.
5. Ibtidoiy din shakllarini ko'rsating.

#### **Bilet № 6.**

1. Turkmaniston xududida tosh davri yodgorliklarining o'rganilishi.  
Tayanch tushunchalar: YAngaja, Kashkirebuloq I,III, Bekarslondog, V.A.Ranov, A.P.Okladnikov.
2. Kozokiston va Kirgiziston xududida bronza va temir davri yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar.  
Tayanch tushunchalar: Andronovo, X.Oltmishboev, K.Akshiev, Tagisken, Jetiosor.

#### **Amaliy savollar:**

1. Mezolit qaysi davrlarni o'z ichiga oladi.
2. Ishlab chiqaruvchi xujalik turlari qaysilar.
3. Patriarxat nima.
4. Manbalar necha turga bo'linadi.
5. Angob nima.

### **Bilet № 7.**

1.Turkmaniston arxeologiya fani taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: D.Buninich, R.Pampelli, Anov, Nomozgox, Joytun, V.M.Masson, D.Durdiev, E.Atagarriev.

2.Kozokiston va Kirgiziston xududlarida antik davr yodgorliklarini o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Bobishmulla, CHirikrabort, Balandi,saklar mozor-qo'rgonlari.

#### **Amaliy savollar:**

1.Tordenuaz qaysi davrga oid madaniyat.

2.Matriarxat nima.

3.Eneolit qaysi davrlarga oid madaniyat.

4.O'zlashtiruvchi xujalik turlari qaysilari.

5.Sun'iy olov qachon kashf etilgan.

### **Bilet № 8.**

1.Tojikistonda arxeologiya fani taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: M.M Dyakonov, V.G.Grigorev, A.YU.YAkubovskiy, B.A.Litvinskiy,B.G.Gofurov.

2.Uzbekistonda poleolit davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Sel-ungur, Kulbuloq, Teshiktosh, A.P.Okladnikov, U.Islomov.

#### **Amaliy savollar.**

1.Solyutre qaysi davrgam oid hisoblanadi.

2.Bronza davrida nimalar kashf qilingan.

3.Kenotof nima.

4.Ostadon nima.

5.YOzuv qachon vujudga kelgan.

### **Bilet № 9.**

1.Turkmaniston xududida antik davr yodgorliklarini o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Marv, Erkkal'a, M.E.Masson, V.M Maksson, Gaurqal'a, CHilburj

2.O'zbekistonda mezolit davr yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Qo'shilish, Obishir, Machay, Zarautsoy, Islomov U.

Tayanch tushunchalar: A.X.Alpisboev, X.Oltmishboev, K.Akischev, Andronovo, Karatov.

#### **Amaliy savollar.**

1.Kemasozlik kachon vujudga kelgan.

2.Piktografiya nima.

3.Naus nima.

4.Dirxam nima.

5.Ashel qaysi davrga oid madaniyat.

### **Bilet № 10.**

1.Tojikiston xududida tosh davri makonlarining o'rganilishi.  
Tayanch tushunchalar: Qora Bura, Qoratog`, Loxutiy, Og`zi Kichik, A.M.Mendelshtam.

2.O'zbekistonda neolit davri yodgorliklarining o'rganilishi.  
Tayanch tushunchalar: Kaltaminor, Jonbos –4, Darvozakir, Katta va Kichik Tuzkon.

#### **Amaliy savollar.**

- 1.Dinor nima.
- 2.Azsh qaysi davrga oid madaniyati
- 3.Uzbekistonda temir qurollaridan qachon foydalana boshlandi
4. «Neolit» terminini fanga kim kiritgan
- 5 Tasviriy san`at qachon vujudga kelgan..

#### **Bilet № 11.**

1.Tojikiston xududida feodalizm davri yodgorliklarining o'rganilishi.  
Tayanch tushunchalar: Xo`jand, Panjikent, Mink, Uratepa, Bundjikat-Kal`ai Kaxkax.

2.Uzbekistonda bronza davri yodgorliklarini arxeologik tadkikotlar.  
Tayanch tushunchalar:Sopollitepa,Jarkuton,Tozabogyop, Zamon bobo, CHust,Sarazm.

#### **Amaliy savollar.**

- 1.Arxeologiyada aviatsiyadan kachon foydalanila boshlaganlar?
- 2.Kulolchilik kachon vujudga kelgan?
- 3.Ikkinchi ijtimoiy mexnat taksimoti nima?
- 4.Urug jamoasiga kachon utilgan?
- 5.Levollua madaniyati kaysi davrga oid?

#### **BILET № .12**

1.Kozokiston va Kirgiziston xududlarida feodalizm davri yodgorliklaning urganilishi.

Tayanch tushunchalar: Utror, Sabron, Olmalik, Sayram, YAngikent, Jand.

2.Uzbekistonda temir davri yodgorliklarida arxeologik tadkikotlar.

Tayanch tushunchalar:Afrosiyob, Eylatoon, Daratepa, Kuzashkir, Qiziltepa, Dalvarzin.

#### **Amaliy savollar.**

- 1.Irqlar qachon vujudga kelgan.
- 2.Birinchi ijtimoiy mexnat taqsimoti nima.
- 3.Markaziy Osiyo bo'yicha eng qadimgi manzilgoh qaysi.
- 4.Arxeologiya terminini fanga kim kiritgan.
- 5.CHorvachilik qachon vujudga kelgan.

#### **Bilet № 13.**

1.Turkmaniston xududida feodalizm davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Mavr, Amul, CHorjuy, Niso, A.Pugachenkova, V.M.Masson.

2.Markaziy Osiyoda mezolit davri makonlarida arxeologik tadqiqotlar.

Tayanch tushunchalar: Obishir, Tutkovul, Machay, Qora kamar, CHilchor chashma.

**Amaliy savollar.**

1. Dehkonchilik qachon vujudga kelgan.
2. Urug` jamoasiga qachon o`tilgan.
3. Markaziy Osiyoda eng birinchi dexkonchilik manzilgoxi qaysi.
4. Turkmanistonda arxeologik tadqiqotlarni kim boshlab bergan.
5. O`zbekiston xududida eng qadimgi anxor izlari qaysi yodgorlikdan topilgan.

**Bilet № .14.**

1. Tojikiston xududida mezolit davri yodgorliklarining o`rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Dangara, SHurtuz, Daxana, Qoratumshuq, SHugnu, Quyi Bulyon.

2. Markaziy Osiyoda neolit davri yodgorliklarining o`rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Kaltaminor, Joytun, Xisor, Andronovo.

Tayanch tushunchalar: Samarqand, Buxoro, Termiz, Xiva, Poykend, Toshkent.

**Amaliy savollar.**

1. Antropogenez jarayoni nima.
2. «Avstrolopitek» so`zi qanday ma`noni anglatadi.
3. Fertifikatsiya nima.
4. Tukurvchilik qachon vujudga kelgan.
5. Mikrolitlar nima

**Bilet № 15.**

1. Markaziy Osiyoda arxeologiya fani taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: «Turkiston xeologiya xavaskorlari to`garagi», V.V. Bartold, S.P. Tolstov, M.E. Masson, A.P. Okladnikov.

2. O`zbekistonda urta poleolit yodgorliklarining o`rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Teshiktosh, Xujakent, Abiraxmat, Uchtut, Ijond.

Tayanch tushunchalar: Obishir I, V, Zambar, SHurkul, YAngi qadam, Bekobod.

**Amaliy savollar.**

1. Piktografiya nima.
2. Sinontroplar qaysi davrda yashaganlar.
3. Ostadon nima
4. «Poleontrop» qanday ma`noni bildiradi.
5. Dehqonchilik qachon vujudga kelgan.

**Bilet № .16.**

1. Neolit davriga xarakteristika

Tayanch tushunchalar: Kaltaminor, Jaytun, Xisor..

2. Turkmaniston xududida mezolit davri yodgorliklarining o`rganilishi.

Tayanch tushunchalar: YAngaja, Bekarsmon tog, Tomchisuv, Kaskir buloq, Damdam chashma

**Amaliy savollar.**

1. Arxontrop qanday ma`noni anglatadi.
2. «Xomo sopienis» nima.
3. CHorvachilik qachon vujudga kelgan.
4. Muste qaysi davrga oid madaniyat.

5. Klioelin qachon vujudga kelgan.

**Bilet № .17.**

1. Toshkent va Farg'onada bronza davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: CHust madaniyati, Dalvarzin, Ashkoltepa, CHimboy, Burgulik.

2. Kozokiston va Qirg'iziston paleolit yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: On Archa, Tassor, Burikazigan, Tandirkazigan, X.A. Alpisboev.

**Amaliy savollar.**

1. «Neotrop» so'zi qanday ma'noni bildiradi.

2. «Xomo xobilis» nima.

3. Tasviriy san'at qachon vujudga kelgan.

4. Pitekontroplar qachon yashagan.

5. Azıı qaysi davrga oid madaniyat.

**Bilet № .18.**

1. Kozokiston va Kirgiziston antik davr yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Bobishmulla, CHirikrabort, Balandi, Saklar, mozor qo'rg'onlari.

2. Tojikistonda feodalizm davri yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar: Xo'jand, Panjikent, Munk, Uratepa, Bunjikat-Kal'ai Kaxkax.

**Amaliy savollar.**

1. Assuariy nima.

2. Muzlik qachon boshlagan.

3. Orinyak qaysi davrga oid madaniyat.

4. Xunarmandchilik qachon vujudga kelgan.

5. «Pitekantrop» ma'nosi.

**Bilet № .19.**

1. Turkmaniston feodalizm davri yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar: Marv, Niso, Dexiston, V.M. Masson, V.A. Pugachenkova.

2. Markaziy Osiyoda arxeologiya fani taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: «Turkiston arxeologiya xavaskorlari to'garagi», V.V. Bartold, S.P. Tolstov, M.B. Masson, O.P. Okladnikov.

**Amaliy savollar.**

1. Eng sodda mexnat qurollari.

2. «Mezolit» so'zining ma'nosi.

3. Mis qachon kashf etilgan.

4. Solyutro qaysi davrga oid madaniyat.

5. «Nous» nima.

**Bilet № .20.**

1. Mezolit davriga xarakteristika

Tayanch tushunchalar: Markaziy Osiyoda mezolit, muzlikning chekinishi, xayvonlarning qulga o'rgatilishi.

2. Markaziy Osiyoda qoyatosh suratlari mavjud yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: S.S.Chernikov, B.M.Zmma, G.V.Parfenov,  
V.A.Ranov, Zarautsoy, Takalisoy, Saymalitosh, Sariyoz.

**Amaliy savollar.**

1. Angob nima
2. Magementze qaysi davrga oid madaniyat.
3. Birinchi ijtimoiy mexnat taqsimoti nima.
4. Arxeologiya terminini fanga kim kiritgan.
5. «Arxeologiya» so'zi qanday ma'noni bildiradi.

**BILET № .21.**

1. Qadimgi tosh davriga xarakteristika.

Tayanch tushunchalar: Ashel, Muste, buyuk muzlik, sinantrop, fergantrop, antropogenez jarayoni.

2. O'zbekistonda qoyatosh suratlarda arxeologik tadqiqotlar.

Tayanch tushunchalar: Zarautsoy, Sarmishsoy, Takalisoy,  
G.V.Parfenov, O.P.Okladnikov, I.V.Lomaev.

**Amaliy savollar.**

1. Kenotof nima
2. Animizm nima..
3. Ikkinchi ijtimoiy mexnat taqsimoti nima.
4. Madlen qaysi davrga oid madaniyat
5. Kulolchilik charxi qachon paydo etilgan.

**Bilet № 22 .**

1. Bronza davriga xarakteristika

Tayanch tushunchalar: birinchi ijtimoiy mexnat taqsimoti, ilk shaxar tipidagi manzilgoxlar, patriarxat, kashfiyotlar.

2. Turkmanistonda eneolit davri yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar: Anovtepa, Namozgoxtepa, Oltintepa, Geoksyurtepa, ilk shaxar tipidagi manzilgoxlar.

**Amaliy savollar.**

1. Koriz nima
2. Fetishizm nima.
3. Eneolit qaysi yillarni o'z ichiga oladi.
4. Dinor nima.
5. Uk-yoy qachon kashf etilgan.

**Bilet № 23.**

1. Feodalizm davrining o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: shaxarlar tuzilishi, qo'rgon, ko'shk, qasr, rabot, shaxriston, ark.

2. Kozokiston va Kirgiziston xududlarida mezolit davri yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar.

Tayanch tushunchalar: Korabosh, Batpak, Ovul Kanay, Qorasuv, Turlan, On Archa.

**Amaliy savollar.**

1. YOzuv qachon vujudga kelgan.
2. Totemizm nima



- 3.Tabiiy olov qachon kashf etilgan.
- 4.Neondertallar qachon yashaganlar.
- 5.Olduvay qaysi davrga oid madaniyat.

**Bilet № .24.**

- 1.Turkmanistonda temir davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Elkantepa, CHurnok, Aravalitepa, Kuxnatepa.

- 2.Temir davriga xarakteristika.

Tayanch tushunchalar: temirning kashf qilinishi, ikkinchi ijtimoiy mexnat taqsimoti, ilk shaxar va davlatlar.

**Amaliy savollar.**

- 1.Din qachon vujudga kelgan
- 2.Ashel qaysi davrga oid madaniyat
- 3.Kromononlar qachon yashaganlar.
- 4.Temir davri qachon boshlanadi.
- 5.SHurf nima?

**Bilet № .25.**

- 1.Tojikistonda temir davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Kal'ai Mir, Gozimulla, Baktriya, A.M.Mendelshtam, V.A.Ranov.

- 2.Uzbekistonda ilk davlatlar vujudga kelish masalasining arxeologik jihatdan o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Katta Xorazm, Baktriya, Oriylar, «Avesto», S.P.Tolstov, B.A.Lidvinskiy, V.M.Masson.

**Amaliy savollar.**

- 1.SHelp qaysi davrga oid madaniyat?
- 2.Sun'iy olov qachon kashf qilingan.
- 3.Manbalar necha turga bo'linadi.
- 4.Madaniy qatlam nima.
- 5.Mezolit qaysi davrlarni o'z ichiga oladi.

**Bilet № .26.**

- 1.Turkmanistonda antik davr yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Marv, Gaurqal'a, Erkqal'a, CHilburj, Durnali, Eski va yangi Niso.

- 2.Uzbekistonda mezolit davri yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar: Obishir, Machay, Buzsuv, Zarautsoy, Qo'shilish.

**Amaliy savollar.**

1. Levauliya qaysi davrga oid madaniyat.
- 2.Angob nima.
- 3.Bronza davri qaysi yillarni o'z ichiga oladi.
- 4.Gildirak qachon kashf etilgan.
- 5.Tangalarni qaysi fan o'rganadi.

**Bilet № .27.**

- 1.Kozokiston va Kirgizistonda qadimgi tosh davri yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar: On Archa, Tassor, Burikazigan, Tanirkazigan.

- 2.O'zbekistonda paleolit davri yodgorliklari.



Tayanch tushunchalar: Sel-Ungur, Kulbuloq, Teshiktosh, A.P.Okladnikov, M.M.Dyakonov, U.Islomov.

**Amaliy savollar:**

- 1.Arxeolitlar nima.
- 2.Numizmatika nima.
- 3.Muste qaysi davrga oid madaniyat.
- 4.Arxeologiya so'zi ma'nosi.
- 5.YOzuv qachon vujudga kelgan.

**Bilet № 28.**

1.Turkmanistonda eneolit davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Anovtepa, Nomozgoxtepa, Oltintepa, Geoksyurtepa, ilk shahar tipidagi manzilgohlar.

2.Markaziy Osiyoda arxeologiya fani taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: M.B.Masson, O.P.Okladnikov, S.P.Tolstov, YA.G.Gulomov, A.YU.YAkubovskiy.

**Amaliy savollar:**

- 1.Mezolit qaysi yillarni o'z ichiga oladi.
- 2.Ishlab chiqaruvchi xo'jalik turlari
- 3.Patrearxat nima.
- 4.Manbalar necha turga bo'linadi.
- 5.Magimoze qaysi davrga oid madaniyat.

**Bilet № 29.**

1.Tojikiston xududida antik davr yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Xo'jand, Kofirqal'a, Ko'xnaqal'a Litvinskiy B.A.

2.Markaziy Osiyoda eneolit davr yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar.

Tayanch tushunchalar: Anovtepa, Nomozgoxtepa, Sarazm, Lovlakon, Kovunchi madaniyati, Katta tuzkon makonlari.

**Amaliy savollar:**

- 1.Antropogenez jarayoni nima.
- 2.Avstropolitek so'zining ma'nosi.
- 3.Fartifikatsiya nima.
- 4.Tukuvchilik qachon vujudga kelgan.
- 5.Mikrolitlar nima.

**Bilet №30.**

1.Tojikiston va Turkmanistonda arxeologiya fani taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: M.M.Dyakonov, V.A.Ranov, B.A.Litvinskiy, M.E. B.M.Massonlar, B.A.Kuftin.

2.Uzbekistonda o'rta paleolit davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Teshiktosh, Kulbuloq, A.P.Okladnikov, Obiraxmat, Xujakent, Uchtut, Ijond, U.Ismoilov.

**Amaliy savollar.**

- 1.Dinor nima.
- 2.Aziya qaysi davrga oid madaniyat.
- 3.O'zbekistonda temir qurollaridan qachondan boshlab foydalanganlar.
- 4.O'q-yoy qachon paydo bo'lgan.

5. Ibtidoiy din shakllarini ko'rsating.

**Bilet № 31.**

1. Markaziy Osiyoda arxeologiya fani taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: M.E.Masson, A.P.Okladnikov, S.P.Tolstov, YA.G.Gulomov, A.YU. YAkubovskiy.

2. Markaziy Osiyoda dexkonchilik manzilgoxlari.

Tayanch tushunchalar: Jaytun, Tozabogyop, Sopollitepa, CHust, Sarazm.

**Amaliy savollar:**

1. Neantrop so'zi ma'nosi

2. Xomo-xibilis nima.

3. Tasviriy san'at qachon paydo bo'lgan.

4. Titikantrop qachon yashab o'tganlar.

5. Azil qaysi davrga oid madaniyat.

**Bilet № 32.**

1. O'zbekiston xududida feodalizm davri yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar: Samarqand, Buxoro, Termiz, Xiva, Payked, Toshkent.

2. Markaziy Osiyoda mezolit davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Obishir, Tutkovul, Machay, Qorakamar, CHil-chorchashma

**Amaliy savollar:**

1. Assuariy nima.

2. Muzlik qachon boshlangan.

3. Orinyak qaysi davrga oid madaniyat.

4. Xunarmandchilik qachon vujudga kelgan..

5. Pitekantrop so'zining ma'nosi..

**Bilet № 33.**

1. Turkmaniston xududida feodalizm davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Marv, Niso, Dexiston, V.M.Masson, G.A. Pugachenkova.

2. Tojikiston xududida mezolit davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: CHil-chor chashma., oshxona, shugnau, Darai SHur, Say Sayyod.

**Amaliy savollar:**

1. Nous nima.

2. Salutra qaysi davrga oid madaniyat?

3. Mis qachon kashf qilingan?

4. Mezolit so'zi ma'nosi.

5. Eng dastlabki sodda mexnat qurollari qaysi?

**Bilet № 34.**

1. Kozokiston va Qirg'izistonda eneolit va bronza davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Andronovo Tagisten, Saklar madaniyati, dasht-kesma madaniyati.

2. Samarqand va Qashqadaryoda antik davr yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Afrosiyob, Marokanda, Erqug'on, Tali Barzu, Daratepa, Sangirtepa.

**Amaliy savollar:**

1. Mikrolitlar nima.

2. Ieroglif nima
3. Madaniy qatlam nima.
4. Neolit qaysi davrlarni o'z ichiga oladi.
5. Maglemoze qaysi davrga oid madaniyat

**BILET № 35**

10'zbekistonda arxeologiya fani taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: V.Vyatkin, YA.G.Gulomov, S.P.Tolstov, A.Asqarov, YU.F.Buryakov, A.S.Sagdullaev.

2. Turkmanistonda temir davri yodgorliklarining o'rganilishi.

Tayanch tushunchalar: Madovtepa, Aravalitepa, YOztepa, Geoksyurtepa, Izzatquli.

Amaliy savollar:

1. Arxeolitlar nima.
2. Numizmatika nima.
3. Muste qaysi davrga oid madaniyat
4. Arxeologiya so'zi ma'nosi.
5. YOzuv qachon vujudga kelgan.

**Машғулотларда педагогик ва инфор­мацион технологияларни қўллаш  
бўйича услубий кўрсатма.**

Ҳозирги кундаги энг муҳим ва мураккаб вазифа бир қолипда фикрлашдан қочиш, педагогик онгини ўзгартириш, янглиш тасаввурлардан қочиш, ёш авлод таълим-тарбиясига ҳозирги замон талабларига жавоб берувчи янгича йўналишларини излаб топиш зарурдир.

1. Ўқитувчининг биринчи галдаги вазифаси ўқувчиларининг фикрлаш соҳасида ижодий ва мустақил фаолиятига ўргатиш. Маълумки, тарих Фани асосан хронология, топонимлар ном ива сулолалар шажарасини аниқ эслаб қолишлини тақазо қилади. Шундан келиб чиққан ҳолда, аввало талабаларнинг бошини ишлатишга ўргатиш зарур. Бунга талабаларнинг кўп нарсаларга қизиқиб, савол бериши ваш у саволларга жавоб излаши жараёнида эришилади. Афсуски, кўп ўқитувчилар талабаларнинг кўа савол беришларига қарши бўлади. Албатта бу жараён ўқитувчидан кўп билимни талаб қилади. Кўп ҳолларда ўқитувчи талабаларга савол берса, улар дарслик бўйича жавоб беришга ҳаракат қилади. Шу аҳволда улар нотўғри, бир қолипдаги тасаввурга эга бўлишади. Гўё автор ва ўқитувчи доимо ҳақ деб кашф этишади. Демак, дарсларда савол-жавоблар катта аҳамиятга эга. Талабани савол беришга ўргатиш зарур. Хатто бу саволларга олдиндан тайёргарлик кўриб келиб, ўзи тўғри жавобга эга бўлиши кераклигини, жавобнинг тўғри ёки нотўғри эканлигини билишга кўниктирмоқ зарур. Бу жараённи ҳам маъруза дарсларида, ҳам амалий машғулотларда қўллаш мумкин бўлади.

2. Танқидий ёндашиш. Археология дарси тарих дарси каби бевосита ўтмиш воқеаларнинг тафсилоти билан боғлиқ жараёндир. Маълумки, воқеаларнинг ҳаммаси силлиқ, бир текисда ўтмаган. Аждодларимиз ҳаётида салбий ҳодисалар, хатоликлар кўп бўлган. Тарихни ўрганиш фақат ўтган воқеаларни эслаш ва материал тафсилотини айтиб беришдан иборат эмас. Тарихни ўрганиш ўтган воқеаларни ўйлаб кўриб, тушуниб етиш, ижтимоий ҳаёт қонунларини онгли равишда таҳлил қилиш демакдир. Бу билан биз талабани мустақил фикрлашга ўргатамиз. Ўқитувчидан ҳар бир жараёни гапириб беришда катта маҳоратга эга бўлиши керак. Талабани маърузани тинглаш вақтида салбий ва ижобий томонларини таҳлил қила олишга ўргатиш зарур.
3. Дарсларни диалог тарзида ўтиш. Ўқитувчи ва талаба диалоги мавзунини янада бойитади. Ўқитувчидан ҳар бир матндаги сатрга савол ярата олиш қоибилиятига эга бўлиши зарур. Доскага чиққан талабадан бошидан охиригача матнни гапириб беришга йўл кўймаслик зарур. Диалогда аудиториядаги талабалар ҳам кенг иштирок этишлари лозим. Шунда талабанинг маълум саволга жавобни ёдлаб олиб жавоб беришга йўл кўйилмайди.

Масалан, Талабага: «Неолит даврида Ўрта Осиёда қандай жараёнлар кечди?» деган савол бериш мумкин.

Бу ерда талаба неолит даврида Ўрта Осиёда қандай жараёнлар кечганлигини билади. Лекин бу жараёнлар сабаблари ва шарт-шароитларини ҳамда қандай келиб чиққанлигини даср вақтида таҳлил этади. Биз талабаларга мана шу таҳлилларни дарсга тайёргарлик кўраётган жараёнида юз беришига ўргатишимиз зарур. Натижада талабада туғилган саволларга жавоб матнда бўлмаслиги мумкин, шунда у қўшимча адабиётлардан қидиришга ҳаракат қилади. Агар жавоб топа олмаса, ўз фикрини дарсда баён этса, қолган талабаларда жавоб бўлиши мумкин бўлади. Натижада талаба саволларига жавоб топади.
4. Ахборот тўплаш. Дарсдан ташқари турли авторларнинг асарларини кунт билан ўқиб, ўзини қизиқтирган саволларга жавоб излайдиган ва топганларини қолганларга айтиб бериш. Ахборот маълум бир кунга белгиланади. Ўқиган талаба воқеаларни диққат билан айтиб, ўқитувчи айтмай кетган нарсаларни ўзлари топиб тўлдиришади. Бунда талаб архелог олим қиёфаси тасвирлаши, қазилма ишларини янада тўлароқ тасаввур қилишлари, Воқеаларнинг шакли ва мазмунига баҳо беришлари шарт.
5. Бахс. Мунозара дарси. Мураккаб саволлар бахс, мунозара уйғотади. Аввало бахслаш билишлари шарт. Бахслаш маданияти зарур. Бунда талаба иккинчи талабанинг ҳар бир фикрига шубҳа билдиради, қаршилик кўрсатади. Талаба фикрига эътироз билдирганга оқилона тушунтириши, далиллар билан исботлаши, шу йўл билан қаршиликни енгишга уриниши зарур бўлади.
6. Агар талаба ўзини ўқитувчи ўрнида кўрса кўп нарсани ўқиши, ўз устида ишлаши зарурлигини тушунади. У баҳо олиш учун эмас, ўзи учун ўқийди. Бу нарсани тушунган талаба билим олишга муносабати

ўзгаради. Дарсликда ёзилганидан ташқари кўпроқ билишга қизиқадиган, ўз билганларини ўртоқларига ишонарли, асосли қилиб айтиб Бера оладиган талабага айланади. Демак, бу жараёнда талаба ўқитувчи ўрнида дарс ўтади.

Албатта ўқитувчи нафақат билимдон, балки кашфиётчи ҳам бўлиши даркор. Бир дарси иккинчисига ўхшамаслиги, бир-бирини такрорламаслиги зарур. Дарсда ўйинлар, турли педагогик технологияларни қўллаш катта Самара беради. Бу билан бутун гуруҳни бир дарсда баҳолаш имкониятига эга бўлади.

**О'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat Universiteti**

**“Tarix” kafedrası**

**«Arxeologiya» fani bo'yicha  
bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun**

### **MA'RUZA MATNLARI**

Yo'nalishi	522 0200	Tarix
Kurs	1	
Semestr	2	
Ma'ruza	36	
Jami:	36	

**TUZUVCHI:**

**t.f.n.Q.Masharipov**

**Taqrizchi:**

**Q. Sobirov**

“Tarix” kafedrasining 2007 yil 29 avgustdagi yig'ilishining №1 bayonnomasi bilan tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**

**t.f.n.Q.Masharipov**

Tarix fakulteti uchun uslubiy kengashining 2007 yil 30 avgustdagi №1 bayonnomasi bilan ma'kullangan

**o'quv uslubiy kengash raisi:**

**T.Abdullaev**

Tarix fakulteti o'quv uslubiy kengashining 2007 yil 30 avgustdagi №1 qarori bilan tasdiqlangan.

**Ilmiy kengash raisi:**

**dots.S.Davletov.**

**URGANCH - 2007 yil**

### **MA'RUZA MATNLARI MAVZULARI:**

- 1. Kirish.**
- 2. O'rta Osiyo paleolit davrida.**
- 3. O'rta Osiyo mezolit davrida.**
- 4. O'rta Osiyo neolit davrida.**
- 5. O'rta Osiyo eneolit davrida**
- 6. O'rta Osiyo bronza davrida.**
- 7. O'rta Osiyo temir davrida.**
- 8. O'rta Osiyo antik davrda.**

## **9. O`rta Osiyo ilk o`rta asrlar davrida**

## **10. O`rta Osiyo rivojlangan va so`nggi o`rta asrlar davrida**

Kirish.

Reja:

1. Arxeologiya fan sifatida. Arxeologiya fanining predmeti va vazifalari.
2. Manbalar, yodgorliklar, arxeologik madaniyat. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.
3. Arxeologiya fanining rivojlanish tarixi. Tadqiqot ko`lamining o`sishi, uning bosq`ichlari.
4. O`rta Osiyo arxeologiyasi va tarix. O`rta Osiyo arxeologiyasining zamonaviy bosq`ichlari.

Markaziy Osiyo xududi (hozirgi O`zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg`iziston mustaqil davlatlari va Qozogiston davlatining janubiy qismi xududlari) qadimdan boshlab insoniyatning ilk madaniy markazlaridan biri bo`lgan. Rim tarixchisi Trog Pompey “O`rta Osiyoliklar qadimiylikda misrliklar bilan baxslasha oladilar” deb qayd etgan edi.

Markaziy Osiyo xududida qadimgi tosh, bronza davrlariga oid ko`plab ibtidoiy manzillar, qabrlar, qadimgi davrga oid shaxarlar qoldiklari o`rganilib, uning natijalari ilmiy jamoatchilikka e`lon qilingan edi.

Markaziy Osiyo xududida sho`rolar xokimiyati davrida arxeologik tadqiqotlar olib borilib, uning natijalari M.J.Jo`raqulov “O`rta Osiyoning ibtidoiy arxeologiyasi (1984 y.) J. Kabirov, A.S.Sagdullaevlarning “O`rta Osiyo arxeologiyasi (1990) o`quv qo`llanmalarida aks ettirilgan.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi yillar davrida tarixiy obidalarda arxeologik qazish ishlari keng miqyosda olib borildi, ularning natijalari esa risolalar, maqolalar tarzida keng jamoatchilik e`tiboriga xavola

qilindi. Vatanimizga qo`shni bo`lgan mustaqil davlatlar Turkmaniston, Qirg`iziston, Tojikiston va Qozog`iston xududlarida xam arxeologik tadqiqotlar olib borilib, yangi ashyolar olinmoqda. Universitet va Pedagogika institutlarining Tarix fakultetlari uchun A.Kabirov A.Sagdullaevlar tomonidan nashr (1990 yil) qilingan o`quv qo`llanma qadimgi tosh davridan miloddan avvalgi I ming yillik boshlari davrini qamrab olgan bo`lib, antik va o`rta asrlar davriga oid arxeologik yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar e`tibordan qolib qolgan. Mustaqillik yillarida arxeologik yodgorliklarida olib borilgan qazish ishlari natijasida olingan ashyolarning ilmiy muomalaga kelib qazish asosida yangi o`quv qo`llanmaning yaratish zaruriyatini hayotning o`zi keltirib chiqardi. SHu jihatidan, mazkur qo`llanmada Markaziy Osiyoda arxeologiya fani taraqqiyotini mavjud bo`lgan va mustaqillikdan keyingi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan yangi ashyolarni keng jalb qilishga e`tibor berildi.

Qo`llanmada Markaziy Osiyoning Qadimgi tosh davridan milodiy XIII asrgacha bo`lgan arxeologiyasi xaqida ma`lumot beriladi. Qo`llanmaning asosiy mazmunini boyitishda O`zbekiston xududidagi tarixiy obidalarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ashyolar ko`prok jalb qilinadi.

### **Arxeologiya fani predmeti va vazifalari.**

Arxeologiya – tarix fanining tarkibiy qismi bo`lib, ijtimoiy fanlar soxasida muxim urin egallaydi. «Arxeologiya» atamasi «arxayos-qadimgi, «logos» - fan ma`nosida kelib yunon tilidan olingan. Insoniyat jamiyat tarixi saxnasiga chiqishi bilan turli tarixiy davr mazmuniga xos mexnat qurollari tayyorlab, uni o`z faoliyatida keng ko`llab turli xo`jalik soxalarini olib borganlar. Kishilik jamiyatining yozuv paydo bo`lishiga kadar bo`lgan tarixini o`rganishda arxeologiya fani yordamga keladi. Demak, odamzotning o`tmish tarixini arxeologiyasiz o`rganib bo`lmaydi. O`rta Osiyoning mustaqil davlatlari xududlarida ko`plab arxeologik yodgorliklar yostanib yotibdi. Ayniqsa O`zbekiston respublikasi xududi insoniyatning o`tmish tarixini yorqin tasvirleydigan yodgorliklarga serob xisoblanadi.

Arxeologik manbalar arxeologik qazish yo`li bilan olinib, ularni ikki xilga ajratish mumkin.

1.Tabiiy manbalar:- Inson va xayvon suyaklari, o`simlik qoldiqlari, geologik qatlamlardir.

2.Moddiy ashyolar - mexnat qurollari, yarog`-aslaxalar, sopol idishlar, qabrlar, manzillar, shaxarlar, sug`orish inshootlari qoldiqlari.

Arxeologik manbalarni olish uchun maxsus ilmiy ekspeditsiyalar tashqil etiladi, ularning faoliyati manzillar, yodgorliklarni qidirib topish, ularni ro`yxatga olish va doimiy arxeologik qazish ishlarini olib borishdan iboratdir.

SHurolar xokimiyati yillarida O`rta Osiyo arxeologiyasi taraqqiyotiga S.P.Tolstov, M.E.Masson, M.M.Dyakonov, A.P.Okladnikov, A.V.Vinogradov, V.G.Grigorev, A.YU.YAkubovskiy, M.P.Gryaznov, A.N.Bernshtam, A.I.Terenojkin. B.A.Latinin, V.M.Masson, B.A Litvinskiy, M.A.Itina, V.I. Sarianidi, A.YA.SHetenko, I.N.Xlopin, A.YU.Zadneprovskiy, va boshqalar kata xissa kushdilar. Bu borada O`rta Osiyolik maxalliy arxeolog olimlardan YA.G`G`ulomov, A.Asqarov, A.Muxammad, Janov, U.Islomov, A.I.Albaum, YU.F.Buryakov, M.Qosimov, R.Sulaymanov, N.Ne`matov, V.A.Ranov, I.Axrarov,



A.Sagdullaev, K.Akischev, E.Rtveladze, V.N.YAgodin, O.Berdiev, T.Mirsoatov, M.Jurakulov, E.Bijanov, N.Toshkenbaev, M.Mambetullaev, M.Isomiddinov, SH.Pidaev, A.Anorboev, V.Matboboev, K.Sobirov, K.Abdullaev, A.Berdimuradov, SH.Raxmanov M.I.Filanovichlarning ilmiy izlanishlari dikkatga sazovor.

O`zbekiston respublikasi xududida xozirgi vaqtda bir necha xorijiy davlatlar (YAponiya, Frantsiya, Germaniya, AQSH, Rossiya, Polsha, Avstraliya, Italiya) bilan xamkorlikdagi arxeologik ekspeditsiyalar faoliyat olib bormoqda.

### Adabiyotlar.

1. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm-M., Nauka, 1948.
2. Tolstov S.P. Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta.- M., Nauka, 1962.
3. G'ulomov YA.G'. Xorazmning suG'orilish tarixi. -T., Fan, 1959.
4. Bernshtam A.N. Istoriko-arxeologicheskie ocherki Tsentralnogo Tyan-SHanya i Pamiro-Alaya. //MIA, № 26 – M.-L., 1952.
5. Gafurov B.G. Tadjiki. -M., Nauka, 1971 g.
6. Itina M.A. Poselenie YAkke-Parsan-2.// MXE, vip. № 6.- M., 1963.
7. Nizovaya Amu-dari, Sarikamish, Uzboy.// MXE, vip № 3. –M., 1960.
8. Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani.- M.-L., Nauka, 1959.
9. Koy-krilgan-kala. M., Nauka, 1967.
10. Usmanova Z.I. Erkkala.// Trudi YUTAKE. T. X II. – Ashxabad, 1963.
11. Masson V.M. Poselenie Djeytun.-M.-L., Nauka, 1971.
12. Xlopin I.N. Geoksyurskaya gruppа poseleniy epoxi eneolita.- M-L. Nauka, 1964.
13. Zabelina N.N. Raskopki na gorodimе Kalai-Mir.// MIA, № 37, 1967.
14. Zadneprovskiy YU.A. Drevnezemledelcheskaya kultura Fergani. // MIA. №118.- M.-L., 1962.
15. Gorbunova N.G. Kultura Fergani v epoxu rannego jeleza.- L., 1963.
16. Belenitskiy A.M, I.B.Bentovich, O.G.Bolshakov. Srednevekoviy gorod Sredney Azii.- M-L., 1973.
17. Nerazik E.E. Selskoe jilimе v Xorezme. (I-XIV vv).- M., Nauka, 1976.
18. Askarov A. Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzi yuga Uzbekistana.- T., Fan, 1977.
19. Anorbaev A. O'zbek davlatchiligi tarixida Q'adimgi FarG'ona va Axsikent.- Namangan, 2001.
20. Asq'arov A. Eng q'adimiy shahar.- T., 2001.
21. A.Kabirov, A.Sagdullaev. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., O'kituvchi, 1990.
22. Mambetullaev M. Istoriya i kultura YUjnogo Xorezma antichnoy epoxi (IV v do n e-IV v i 2) Avtoref. dokt. diss.- T., 1994.
23. Xujaniyazov G. Fortifikatsiya drevnego Xorezma. Avtoref.kand.diss. Nukus, 1996.
24. Matboboev B.X. O'zbek davlatchiligining ilk bosq'ichlarida FarG'ona.- Namangan. 2001.
25. O'zbekiston tarixi moddiy va yozma manbalarda. - T., Fan, 2005.

## **1-Mavzu: O'rta Osiyo paleolit davrida.**

Reja:

1. Paleolit davri umumiy tavsifi. Davrlashtirish va xronologiya. O'rganilish tarixi.
2. O'rta Osiyoning paleolit davri yodgorliklari.
3. Tosh q'urollariga ishlov berish texnikasi va xususiyatlari Paleoantropologik topilmalar.
4. O'rta Osiyoning paleolit davri xO'jaligi.

Insoniyat faoliyatining ilk davri paleolit deb nomlanib, yunon tilida «Palayos-qadimgi, Litos- tosh demakdir.

Qadimgi tosh davrini ashyolarning shakli, ishlanish vazifasiga qarab uch davrga ajratish mumkin:

- 1). Ilk paleolit.
- 2). O'rta paleolit.
- 3). So'ngi paleolit.


Ilk tosh- Qadimgi tosh davri va insoniyat faoliyatining ilk bosqichi bo`lib, 3,5-2 ml yildan – 800 ming yillarni qamrab olgan. Bu tarixiy davrga oid manzillar:

Selengur – g`or makoni- Farg`ona shaxaridan taxminan janubi-g`arbda Xaydarxonning g`arbiy chekkasida joylashgan, g`orning ichki tomon uzunligi 120, eni kengligi 34, balandligi-25 m. 1955, 1960 va 1964 yillarda A.P.Okladnikov manzilning qaysi davrga oid ekanligini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlarini olib borgan. 1980-1988 yillarda U.Islomov Seleng`urda tadqiqot ishlarini boshlab yubordi, natijada qalinligi, 20-40 sm bo`lgan 5 ta madaniy qatlam o`rganildi. Seleng`ur qatlamidan ko`l chopkisi, og`ir va tumtok tosh bolta, tesha, chopperlar topilgan. Ikkinchi madaniy qatlamdan odam bosh suyagi, engak qismining bir


bo`lagi xamda 4 ta tishi topilgan. Uchinchi madaniy qatlamdan esa yakka xolda 10 ta tish va odam elka suyagining bir bo`lagi topilgan. Seleng`urdan topilgan suyaklardan biri 10 yashar bolaga tegishli bo`lgan. Manzil topilmasini poleantrop va arxantrop o`rtasidagi oraliq bosqichi bo`lib ashel davriga mansub bo`lgan. Seleng`ur manzili madaniy qatlamidan 32 turga oid sut emizuvchi xayvonlarga taalukli 5 ming suyak qoldiqlari topilgan. G`or ayigi, bo`ri, g`or arsloni, korkidon, bug`ilar, otlar, eshak, to`ng`iz suyaklari uchraydi. Manzil bundan 1 ml 200 ming yil bilan belgilangan.

Kulbulok – Toshkent viloyati Angren shaxaridan 12 km g`arbda joylashgan kulbulok nomli bulok atrofida joylashgan. 1962 yildan M.R.Kosimov manzilda arxeologik tadqiqot ishlarini olib borgan. Manzilda topilgan madaniy qatlamlar qadimgi tosh davrining barcha bosqichlarini qamrab olganligi ma`lum bo`ldi. Kulbulokda 41 ta madaniy qatlam o`rganilib, quyi qatlamidan nukleuslar, parrakchalar, ko`l chopkilari, tosh qirg`ichlar topilgan. Manzilning kuyi qatlami ashel davrining sunggi boskichiga oiddir.

Ashel davri xo`jaligi:



Ashel davri mexnat qurollari:



Ashel davrida Turon va Jaxon xududi.

Markaziy Osiyo	Tarixiy sanasi	Afrika, Osiyo jahon hududi	Tarixiy sanasi
Seleng`ur	1 mln 200 ming	Olduvay	3,5-2 mln
Kulbulok	1 mln	Ziji	1,5-2 mln

Bolttog`or	1 mln		1 mln - 700 ming
Uchtut	1 mln - 800 ming	Satanidor	
Ijond	-//-		
Vaush	-//-		
On-Archa	300-100 ming		
Kichik Koratog`			
Qoratog`-1			
Loxutiy			
Xavolang			
YAngaja			
Qora Tangir			
Bekar slonog	700-500 ming yillarda		
Tomchisuv			
Takali			
Burikazigon			
Tanirkazigon			
SHabanti-1			
Sari Arka			
Semiz Bugu			
Xudaykul			
Jaman Aybat			

### O`rta paleolit davri (Muste) manzillari.

Zarafshon voxasida ilk tosh davri manzillari topib o`rganilgan emas, lekin muste davriga oid Omonkuton, Takalisoy, Go`rdara, Samarqand manzillari o`rganilgan.

Omonqo`ton g`or-manzili Samarqandan 45 km janubda Bulbulzorsoyning quruq o`zani yon bag`rida Omonqo`ton qishlog`ida joylashgan. 1947-1957 yillarda D.Lev rahbarligidagi Samarqand Davlat Universiteti arxeologiya guruxi manzilda tekshirish ishlarini olib bordi. Manzil kengligi 1,5 m, balandligi 0,9 m bo`lib, madaniy qatlam chukurligi 25 m. Madaniy qatlamdan kirg`ich, kurakchalar, o`tkir uchli paykon, plastinkalar, nuklues va qo`l chopqilari topilgan. SHu bilan birga, arxar, ayiq, tog` echkisi suyaklari olingan. Madaniy qatlamdan o`chok-gulxan qoldiqlari uchraydi. Manzilda neandertal odamlari xo`jalik yuritganlar.

Gurdara – Samarqanddan janubi – sharqda, Urgut tumanining Go`rdara qishlog`i xududida joylashgan. Manzil madaniy qatlamida uchirindilar, tosh qirg`ichlar, nukleuslar, qirg`ichsimon mexnat qurollari topilgan.

Qutirbulok- Samarqanddan 110 km janubi-g`arbida, Zirabulok tog`ining shimoliy yonbag`irdagi Qutirbuloq nomini olgan buloq atrofida ochik manzil sifatida joylashgan. Manzilda 5 ta madaniy qatlam o`rganilib undan paykonlar,

qirg'ichlar, teshgichlar, parmalar kabi mexnat qurollari olingan. SHu bilan birga tur, bug'u, it, kulon, bug'i suyaklari xam topilgan.

Zirabulok – Qutirbuloqdan 1 km sharqda Zirabuloq bulog'i atrofida joylashgan. Madaniy qatlamda 350 ta mexnat qurollarining aksariyatini sixcha, qirg'ich, qirg'ichcha teshgich, o'roq, randa kabi qurollar tashqil etadi. Muste davriga oid ashyolar Samarqanddagi Registon, Afrasiyob xarobasi maydonlaridan, Darg'om kanalining chap soxilidagi xududdan topilgan.

Takalisoy – Samarqanddan 50 km janubi-sharqdagi Taxtakorachada joylashgan. 25-40 sm chuqurlikdagi madaniy qatlamdan parrakchalar, tosh pichoq, qirg'ich qoldiqlari olingan.

Toshkent viloyati xududida muste davri yodgorliklari:

Kulbulok manzili madaniy qatlamidan muste davriga oid mexnat qurollari topilgan.

Obiraxmat – Toshkent shaxaridan 100 km shimoli-sharqda CHotqol tizmasining Paltov soyi yuqori soxilida joylashgan. Makon yoysimon shaklda, eni-20 m 21 ta madaniy qatlam o'rganilib, undan nukleuslar, parrakchalar, sixchalar, qirg'ichlar, pichoqlar olingan. Umuman 30 mingdan ortik tosh qurollari olingan.

Xo'jakent Toshkent shaxaridan 80 km shimoli-sharqda Xo'jakent qishlog'i yaqinida joylashgan bo'lib, uning balandligi 2.5 m, kengligi- 6m, chuqurligi-4 m. Madaniy qatlamdan kul chopkilari, parrakchalar, teshgich, bigizlar topilgan. Muste davri manzillari Bruchmulla yaqinida YUusufxona, Obiraxmat yaqinida CHotkol 1-2, Kukyaylov, Oktosh, Xujakent-2, CHorvok suv ombori, Oxangaron daryosi xavzalarida topib o'rganilgan. Oxangaron daryosining O'rta oqimidagi Tuyabugiz suv ombori xavzasida, Burguluksoy oraligida o'rta tosh davriga oid mexnat qurollari topilgan. Toshkent viloyatining tog` va tog` oldi xududlaridan tashqari, tekisliklarda xam muste davriga oid manzillar o'rganildi.

Zogarik- Toshkentdan 15 km shimolda CHernyaevka qishlog'i xududida joylashgan. Madaniy qatlamdan nukleuslar, qirg'ichlar, teshgichlar, nayza uchi paykonlari topilgan.

Qoraqamish- Qoraqamish jarligi soxilida joylashgan bo'lib, uning qatlamidan tosh pichoqlar, parrakchalar nukleuslar kabi mexnat qurollari kam mikdorda topilgan.

Bo'zsuv –1- Bo'zsuv kanali soxili yaqinida topilib, uning qatlamidan 250 ga toshdan qilingan mexnat qurollari topilgan. Bo'zsuv –2,3,4,5,6, CHirchiq daryosining yuqori qismida Ko'prikboshi, YUusufxona., Oktosh, To'sik manzillari o'rganilgan.

Surxondaryo viloyati xududida xam muste davri manzillari o'rganilgan. SHu narsani ta'kidlash joizki, muste davri manzillari dastlab Surxondaryo viloyati xududida o'rganilgan. SHunday manzillardan biri Teshiktosh xisoblanadi.

Teshiktosh – g'or makoni Boysun tog'idagi Zavgalashgansoy darasida joylashgan bo'lib, uning kirish qismi 20 m, chukurligi-21 m, balandligi-9 m. Manzil 5 ta madaniy qatlamdan iborat bo'lib, undan 3000 ga yaqin mexnat qurollari topilgan. Madaniy qatlamning 25 sm chukurligida 8-9 yoshli neandertal bolasi bosh suyagi topilgan bo'lib, V.P.Aleksaev xulosasiga ko'ra o'g'il bola emas, balki qiz bola bo'lgan. Teshiktoshliklar mashg'uloti ovchilik, termachilik bo'lib, neandertallar faoliyat olib borgan.

Amir Temur- g`or makoni Boysun tog`ida joylashgan bo`lib 3 madaniy qatlamdan iborat. Quyi madaniy qatlami muste davriga oid. To`palang daryosi buylarida muste davri kishilarining mexnat qurollari topilgan.

Farg`ona vodiysida muste davriga oid Sariqqurg`on, Etikchi, Qayroqqum, Sux, Obishir, Kuvasoy, CHungara Karimkul, Seleng`ur manzillari va Kopchigoy ustaxonasi o`rganilgan.

Kizilkumdagi Kukcha tog`ida Qizilnura ustaxonasi, Qorakalpog`iston Respublikasining Ustyurt xududida Esen-1, SHaxpaxta, Kamasti manzillari, Qashqadaryo xududida muste davriga oid Angilon manzili o`rganildi.

Xorazm viloyatining Tuproqqal`a massivida muste davriga oid manzillar mavjudligi aniqlangan.

SHunday kilib muste davriga kelib O`zbekiston xududida odamlarning joylashish geografiyasi kengaygan.

Markaziy Osiyoning boshqa mustaqil davlatlar xududlarida muste davri manzillari keng miqyosda o`rganilgan.

Turkmaniston respublikasi xududida muste davri manzillari:

A.P.Okladnikov tomonidan YAngaja, Kora Tangir, Bekarslontog`, Tomchisuv, Kashkirbulok, Janurpa va Uzboy buylaridan, muste davri manzillari o`rganilgan.

Janubiy Qozog`iston xududidagi ashel va muste davri manzillari. Takali 1, 2, 3, Buriqazigon, Tanir Kazigon, Kichik Koratog` SHabakti-1, Uchbulok, SHabakti, Burgutli, Uzunbulok, CHukan Valixonov Takali 1, 2, 3 manzillari, Koratog` yaqinidagi Takali chashmasi atrofidan topilib, ashel-muste davriga oidligi aniqlangan.

SHabakti 1- Jambul viloyatidagi Sarisuv tumani xududida joylashgan.

Qirg`iziston xududida ilk va muste davriga oid manzillar xam o`rganilgan, bu xududda ON-Archa manzilini ko`rsatish mumkin.

Tojikiston davlati xududida ilk va o`rta tosh davri manzillari kengroq o`rganilgan.

Qoratog`-1-Dushanbe shaxarida 50 km janubi-sharqda bo`lib, uning madaniy qatlamlaridan qirg`ich, teshgich, chopper, uchrindilar, tosh parchalari olingan.

Xavolang-Xavolang qishlog`i xududida joylashib ilk va muste davriga oid mexnat qurollari topilgan.

Loxutiy-1-joy manzilining madaniy qatlamidan qirg`ich, qirg`ichchalar, chopqilar topilgan.

Ogzikichik – Dangara qishlog`idagi SHarshar qishlog`i xududida joylashgan. Madaniy qatlamdan qirg`ichlar, sixchalar, parrakchalar, gulxan izlari topilgan.

Qora – Bura manzili SHiniul qishlog`i xududida joylashgan, madaniy qatlamdan 8000 dan ortik mexnat qurollari topilgan.

Qayroqqum - Sirdaryoning chap soxiliga yaqin xudud, bu erdan 31 dan ziyod ochiq shakldagi manzilgoxlar topib o`rganilgan.

SHunday kilib, Markaziy Osiyoning tog` va tog` oldi xududlari va pasttekisliklari ilk tosh va muste davri odamlari tomonidan o`zlashtirilgan. Ibtidoiy

odamlarning madaniy izlari ko'pchilik xollarda g'orlarda topib o'rganilgan, demak ibtidoiy odamlar g'orlarni asosiy makon qilib olganlar.

Markaziy Osiyo ilk va O'rta paleolit davrida.

O'zbekiston	Janubiy Qozog'iston	Tojikiston	Turkmaniston	Qirg'iziston
1	2	3	4	5
<b>Ilk tosh davri manzillari</b>				
Selengur Kulbulok Sox- CHashma Bolttog'ar	Takali 1,II, III Burikazigon Tanirkazigon SHabakti Koratog'-1 Xavolang Xako1,2 Loxutiy-1.		YAngaja Koratangir Bekorslontog' Tomchisuv	On- Archa
	Muste (O'rta tosh davri manzillari)			
Teshiktosh Obiraxmat Kutirbulok Uchtut Zirabuloq	Korasu SariArna Betpak-8 Betpak-12 Muzbel Takali, Tukoli 1-5.	Kayrokkum Xoja-Gor Koratumshuk SHoxta Kora- Bum Ok-Jar Ogzikichik	Kashkirbulok Janurpa Koratangir	Tossor Georgiy Bugor Xuja Xayr
Ijond Voush Omonkuton Takalistoy Go'rdara Samarqand	SHabanti Intori Burgutli Uzunbulok Kolipten Parshakul Korasoy Okmachit	Semiganj Kuxi-piyoz Baypazin		

**Mexnat kurollari**

**Ashyolar**

<b>Tosh</b>	<b>yogoch</b>	<b>Yirik xayvon suyaklari</b>
Nukleuslar, plastinkalar, chopkilar.	kirgichlar, teshgich,	

<b>Muste davrida ovlangan xayvonlar</b>	<i>Fillar, karkidonlar, yovvoyi otlar, saygok, antilopa, bugu, jayron</i>
---	---

### **So`nggi paleolit davri manzillari.**

So`nggi tosh davri manzillari O`rta osiyo xududida kam o`rganilgan, Muste davriga oid bir kancha manzillarning madaniy qatlamlaridan sunggi tosh davriga oid ashyolar topilgan, natijada bu manzillarda odamlar uzoq vaqt faoliyat olib borganligini isbotlaydi.

Kulbulokning 1,2,3 qatlamlari sunggi tosh davriga oid bo`lib, gulxan izlari tishli tosh qurollar, qirg`ichlar, sixchalar plastinkalar, tosh pichoqlar topilgan. Bunday mexnat qurollari Bo`zsuv-1, Tuyabugiz manzilgoxlari madaniy qatlamlarida ham mavjud bo`lgan.


Buzsuv-1,2,4- Toshkentning g`arbida Qoraqamish jari soxilida topib o`rganilgan makonlar.

Tuyabugiz 1,2,3,4,5,6 ochik uslubga ega bo`lgan makon-manzillar. Tuyabugiz suv ombori atrofida o`rganilgan, Samarqand viloyati xududida Samarqand, Takalisoy. Xo`jamazgil makonlari topilib, tosh pichoq, qirg`ich, parrakchalar chopqilar, kesgichlar uroq-randalalar kabi mexnat qurollari olingan.

Janubiy Qozog`iston xududida Achchisoy, Sari-Arka, Betpak-7, Esen-2, Karabas, Angrensar-2, Semiz-Bugu, Korabosh-3, Tulkili joy makonlari o`rganilgan.

Turkmaniston xududida YAngaja-II joy-makon va ustaxona bo`lgan.


So`nggi tosh davri jamiyati  
taraqqiyotidagi o`zgarishlar





uzlashtiruvchi

<b>Xozirgi odam kiyofasidagi odamlarning shakllanib bulishi</b>	<b>Kromanon odamlar</b>
<b>Irklarning vujudga kelishi</b>	<b>Evropeoid</b>
	<b>Mongoloid</b>
	<b>Negroid</b>
<b>Ijtimoiy munosabatlar</b>	<b>Ibtidoiy tuda davri oxiri boskichi</b>
	<b>Urugchilik jamoasi</b>



#### **Adabiyotlar.**

1. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. -M., Nauka, 1948.
2. Tolstov S.P. Po drevnim deltam Oksa i YAKsarta.- M.,Nauka, 1962.
3. G'ulomov YA.G'. Xorazmning suG'orilish tarixi. –T.,Fan, 1959.
4. Bernshtam A.N. Istoriko-arxeologicheskie ocherki TSentralnogo Tyan-SHanya i Pamiro-Alaya. //MIA, № 26 – M.-L., 1952.

5. Gafurov B.G. Tadjiki. -M., Nauka, 1971 g.
6. Itina M.A. Poselenie YAkke-Parsan-2.// MXE, vip. № 6.- M., 1963.
7. Nizovya Amu-dari, Sarikamish, Uzboy.// MXE, vip № 3. –M., 1960.
8. Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiani.- M.-L., Nauka, 1959.
9. Koy-krilgan-kala. M., Nauka, 1967.
10. Usmanova Z.I. Erkkala.// Trudi YUTAKE. T. X II. – Ashxabad, 1963.
11. Masson V.M. Poselenie Djeytun.-M.-L., Nauka, 1971.
12. Xlopin I.N. Geoksyurskaya gruppа poseleniy epoxi eneolita.- M-L. Nauka, 1964.
13. Zabelina N.N. Raskopki na gorodіше Kalai-Mir.// MIA, № 37, 1967.
14. Zadneprovskiy YU.A. Drevnezemledelcheskaya kultura Fergani. // MIA. №118.- M.-L., 1962.
15. Gorbunova N.G. Kultura Fergani v epoxu rannego jeleza.- L., 1963.
16. Belenitskiy A.M, I.B.Bentovich, O.G.Bolshakov. Srednevekoviy gorod Sredney Azii.- M-L., 1973.
17. Nerazik E.E. Selskoe jiliше v Xorezme. (I-XIV vv).- M., Nauka, 1976.
18. Askarov A. Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzi yuga Uzbekistana.- T., Fan, 1977.
19. Anorbaev A. O'zbek davlatchiligi tarixida Q'adimgi FarG'ona va Axsikent.- Namangan, 2001.
20. Asq'arov A. Eng q'adimiy shahar.- T., 2001.
21. A.Kabirov, A.Sagdullaev. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., O'q'ituvchi, 1990.
22. Mambetullaev M. Istoriya i kultura YUjnogo Xorezma antichnoy epoxi (IV v do n e-IV v i 2).// Avtoref. dokt. diss.- T., 1994.
23. Xujaniyazov G. Fortifikatsiya drevnego Xorezma. Avtoref.kand.diss. Nukus, 1996.
24. Matboboev B.X. O'zbek davlatchiligining ilk bosq'ichlarida FarG'ona.- Namangan. 2001.
25. O'zbekiston tarixi moddiy va yozma manbalarda. - T., Fan, 2005.

## **2-Mavzu: O'rta Osiyo mezolit davrida.**

Reja:

1. Mezolit davri umumiy tavsifi. Davrlashtirish va xronologiya.
2. Mezolit davrining O'rganilish tarixi.
3. Mezolit madaniyati va ularning hududiy variantlarga bo'linishi.
4. XO'jalik va moddiy madaniyat.

Mezolit qadimgi tosh asrning so'nggi tarixiy bosqichi bo'lib, bu davrda katta muzliklar erishi natijasida yangi xududlar vujudga keldi. Iqlim sharoit hozirgi davrdagiga yaqinlashib qolgan. Bu tarixiy davrda xayvonot va o'simlik dunyosida katta o'zgarishlar yuz beradi.

Qadimgi tosh davrida qadamlab yuradigan xayvonlar o'rniga tez yuradigan va chopqir mayda jussali xayvonlar egalladi. SHu bilan birga issiq talabli boshqali o'simlik va daraxtlar ko'payib bordi. Bu esa kishilarning turmush tarzi, xo'jaligi sohasida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Tosh qurollarni kayta ishlash, ularni takomillashtirish bilimlarini qulladilar. Bu tarixiy davrda mayda qurollar ko'pchilikni tashqil kilgan. Mezolit davrida insoniyat kamalak va uqni ixtiro etdi, bu texnika sohasidagi kashfiyot edi va shu davrning eng kuchli quroli bo'lgan. Kamalak va o'qning mavjudligi ovchilikni rivojlantirgan va urug` jamoasida go`sht maxsulotining doimiy bo'lishiga imkon yaratgan.

**O'zbekiston xududida mezolit davri manzillari**

Surxondaryo viloyatining Boysun tog`ida Mochoy g`or-manzili-yuqori va o`rta Mochoy qishloqlari o`rtasida joylashgan uning kengligi-20m, chuqurligi-2, balandligi 3,5-5 m. Madaniy qatlamda tosh va suyak qurollari topilgan.

Ayirtom-Termiz shaxaridan 18 km sharqda Amudaryoning ung soxilida joylashgan.

Farg`ona vodiysining janubidagi Katron tog`ining janubida Obishir I, Obishir V makonlari o`rganildi.

Obishir I – Xaydarkon shaxaridan 5 km uzoqlikda joylashgan, uning kengligi 25 m, balandligi 12, chukurligi-6 m.

Obishir 5- Obishir I yaqinida joylashgan, uning kengligi-8 m, balandligi10, chukurligi-6 m. Bu ikki g`or-makon qatlamlaridan parrakchalar, pichoq qadomalari, qirg`ichlar, teshgichlar, miqrolitlar, bigizlar, o`roq- randalar topilgan.

